

SHAHAR AHOLISI ORASIDA EKOLOGIK MUAMMOLAR BO’YICHA IJTIMOIY FIKR O’RGANILISHI

Ermatova Sarvinoz

Annotatsiya: *Mazkur maqolada shaharlarda yashovchi aholining ekologik muammolarga bo’lgan munosabati sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Asosiy e’tibor aholi orasida ekologik ong darajasi, mavjud muammolarga nisbatan faollik va befarqlik sabablarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotlarda Toshkent shahri aholisi misolida ijtimoiy fikr so’rovlari va statistik ma’lumotlardan foydalanilgan. Maqola yakunida aholining ekologik ongini oshirish bo’yicha aniq takliflar ilgari surilgan.*

XXI asrga kelib, insoniyat taraqqiyoti bilan birga ekologik muammolar ham tobora chuqurlashib bormoqda. Xususan, yirik shaharlar – sanoat va transport markazlari bo’lgan hududlar – ekologik muammolarning asosiy manbalaridan biriga aylangan. Shaharlarda aholi zichligi yuqori bo’lib, bu esa chiqindilar hajmining ortishi, havo va suv ifloslanishi, yashil maydonlarning qisqarishiga olib kelmoqda. Shu sababli, shaharda yashovchi aholining ekologik muammolarga bo’lgan munosabati va bu boradagi ijtimoiy fikrni o’rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Mazkur maqola aynan shu muammoni sotsiologik yondashuv asosida tahlil qiladi. Ko’pchilik odamlar ekologik muammolar haqida faqat televizorda yoki ijtimoiy tarmoqlarda ko’rsa, eshitadi. Ammo o’z hayotida ularni jiddiy qabul qilmaydi. Masalan, “Havo iflos” deb shikoyat qilgan odam ertasi kuni mashinasini yuvib, yana ko’chaga chiqib ketadi. Chunki bu muammolar ko’p hollarda uzoq muddatli oqibatlar bilan bog’liq, odam esa darhol natija ko’rmagach, e’tiborsiz bo’lib qoladi. Shunga qaramay, so’nggi yillarda yoshlar orasida ekologik ong shakllanmoqda. Universitetlar, maktablar, hattoki blogerlar bu mavzuni ko’tarishmoqda. Ba’zi joylarda ko’ngilli guruhlар chiqindi yig’ish, daraxt ekish kabi ishlarni o’z tashabbuslari bilan qilishmoqda. Bu juda yaxshi holat. Lekin hali bu yetarli emas. Chunki shaharda yashovchi aholi juda ko’p. Ko’pchilik hali ham ekologiya bu faqat “tabiatni yaxshi ko’rish” degan tushunchada. Aslida esa ekologik madaniyat — bu o’z xatti-harakatimizga javobgarlik hissi bilan qarash degani. Bu masalada eng birinchi qadam — bilim berish. Lekin oddiy va qiziqarli usulda. Odamga ko’rsatish kerak: agar u plastmassa iste’molini kamaytirsa, suvni tejasa, chiqindini ajratib tashlasa — bu ham katta yordam. Misol uchun, maktablarda ekologik fanlar darslarda misollar bilan tushuntirilsa, bolalar bu odatni erta yoshdan egallaydi. Ikkinchi muhim yo’l — jamiyatdagi faollikni oshirish. Mahalla, ko’chalar, bog’lar darajasida ekologik tadbirlar, bellashuvlar, ko’ngilli ishlar ko’paytirilsa, odamlar o’zlarini bu jarayonning bir qismi deb his qiladilar. Uchinchi yo’l — davlat siyosati va qonunlarning kuchaytirilishi. Masalan, chiqindini noto’g’ri tashlaganlar uchun jazoni kuchaytirish, yashil hududlarni himoya qilish bo’yicha qat’iy nazorat qilish.

Xulosa qilib aytganda, shaharlardagi ekologik muammolar oddiy odamdan tortib davlatgacha bo’lgan barcha tomonlarning e’tiborini talab qiladi. Hamma kutyapti: “kimdir

20-May, 2025-yil

biron narsa qiladi” deb. Aslida esa, o‘sha kimdir – aynan o‘zimizmiz. Aholining ekologik ongini oshirish uchun birinchi navbatda unga ekologik muammo haqida tushunarli, oddiy tilda va hayotiy misollar orqali ta’lim berish kerak.

Sotsiologik yondashuv nimani ko‘rsatdi? Odamlarda fikr bor, lekin harakat yo‘q. Endi esa harakat qilish vaqt. Har birimiz kichik ishlar bilan katta o‘zgarishlar boshlanishiga sababchi bo‘lishimiz mumkin. Bu faqat “ekologiya” emas, bu – bizning sog‘lig‘imiz, farzandlarimiz kelajagi va jamiyatimiz barqarorligi demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ахмедов, Ш. И. (2018). Экология и общество: социологический аспект. Ташкент: Университет ношрлари.
2. Karimov, D. (2020). Urban Environmental Issues and Social Awareness in Central Asia. Journal of Environmental Sociology, 12(3), 45-58.
3. Mirzaeva, N. (2019). Shahar muhitida ekologik madaniyatni rivojlantirish. Tashkent: Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish.
4. United Nations Environment Programme. (2021). Global Environmental Outlook. Nairobi: UNEP.
5. Zokirov, M. (2017). Ijtimoiy ong va ekologiya: nazariy va amaliy jihatlar. Tashkent: